

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BOZOROVA MUNISA MAMADIYOR QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID ILMIY
MATNLARDA DEYKSIS HODISASINING LINGVOPRAGMATIK VA
LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bozorova Munisa Mamadiyor qizi

Ingliz va o‘zbek tillarida qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlarda deyxsis hodisasining lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlari 3

Бозорова Муниса Мамадиёр кизи

Лингвопрагматические и лингвокогнитивные особенности дейксиса в научных текстах по сельскому хозяйству на английском и узбекском языках 27

Bozorova Munisa Mamadiyor qizi

Linguopragmatic and linguocognitive features of deixis in scientific texts on agriculture in English and Uzbek languages 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BOZOROVA MUNISA MAMADIYOR QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID ILMIY
MATNLARDA DEYKSIS HODISASINING LINGVOPRAGMATIK VA
LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/Fil5047 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Shermatov Akram Abduhakimovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: Kiselyov Dmitriy Anatolyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ochilova Nilufar Namozovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" oktyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 6283 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "10" oktyabr dagi № 42 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'O. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi taraqqiyotida til birliklarining ma'lum bir sohaga tegishli matnlarda qo'llanilishi bilan bog'liq pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik hamda psixolingvistik tahlil imkoniyatlariga qiziqish ortib bormoqda. Shu asosda ayni bir sohaga oid matnlarning qiyosiy – tipologik jihatlari bilan birgalikda ularni pragmalingvistik, kognitiv tomonlarini yoritib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, pragmatikadagi asosiy tushunchalardan biri bo'lgan deysis hodisasi tilshunoslar diqqat markazida bo'lsada u haqida yakuniy xulosaga kelinmaganligi, uning muloqot jarayonlari bilan bog'liqligi, deyktik belgilar tizimi matn bo'ylab mantiqiy bog'lanish va izchillikni kuchaytirib, axborot uzatishning samaradorligini oshirishi hamda vaqt, makon va boshqa deysis turlari yordamida matn konteksti yanada aniqlashtirilishi, bu esa ilmiy va badiiy tahlillar uchun zarurligini ochib berish bugungi tilshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchilarning tashqi olam haqidagi bilimlari bilan o'rganilgan bo'lib, ushbu jarayondagi ma'lumotlarni uzatish, ularni yetkazish vazifasini pragmalingvistikaning birliklaridan biri bo'lmish deysis hodisasi ekanligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ingliz va o'zbek tillaridagi agromatnlarda deyktik birliklarning tasnifi va ularning pragmalingvistik tahlili, kognitiv tahlil asosida deyktik markazni belgilash usullari, deyktik birliklarning chog'ishtirish, pragmatik tahlil matn orqali amalga oshirilishi, matndagi emotsional va informativ elementlarini aniqlashdagi muhim jihatlari va ingliz tilidagi adresatga ta'sir etishning lingvistik va emotsional vositalari, agromatnlar ham didaktiv, informativ, argumentativ va o'quvchi bilimni kengaytirish kabi pragmatik vazifalari, agromatnlarda deyktik belgilarning jarayonlashuvi va aniqlikni ifodalashda deyktik munosabatning holatlari, agromatnlarda deysisning lingvokognitiv xususiyatlari hamda ikki tilda qiyoslash tilshunoslikda zarur vazifalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ilm-fan sohalarining jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishi hamda katta ilmiy natijalarga erishishga mustahkam zamin yaratmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Ushbu sohada amalga oshirgan ishlarimiz jamiyatimizni yangi bosqichga ko'tarish, yuksak marralarni egallash, Uchinchi Renessans poydevorini qurishga xizmat qilayotgani hozirning o'zida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ma'naviy yetuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash bo'lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir"¹. Natijada qishloq xo'jaligiga oid matnlar tarkibida deyktik vositalarni qo'llash orqali matn qismlari o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish mustahkamlanishi, o'quvchiga qo'yilayotgan xulosa aniq ifodalanishi, agromatnlardagi anaforik vositalar murakkab tushunchalarni soddalashtirish, qayta ifodalash imkonini berishi, agromatnning kirish va xulosa qismlarida deyktik birliklarning keng qo'llanilishi, matnning umumiy strukturaviy uzviyligini va o'quvchi tomonidan ma'nolarning to'g'ri idrok etilishini ta'minlashiga erishiladi. Agromatnlarga xos bo'lgan kognitiv – bilish faoliyati

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. – Б. 304.

jarayonida muallifning kerakli ma'lumotlarga ishora qiluvchi deytik birliklar tasnifi kabi qarashlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF- 5847-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillardagi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmonlari shuningdek, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarning bajarilishiga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida bugungi kunda deyxsis nazariyasi sohasida, jumladan, pragmatikadagi deyxsis muammolarini tadqiq qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada deyxsisning pragmatik hamda kognitiv tahlili borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: F.L.Bush, E.Todisko, N.Pilguy, K.Byuller, S.C.Levinson, J.Layonz, F.Kornish, F.Brizard, Y.Huang, H.F.Uilyams, P.S.Laurea va b².

Matn va undagi deytik birliklarning namoyon bo'lishi haqida quyidagi rus tilshunos olimlarining ishlarida kuzatiladi: N.A.Srebryanskaya, O.L.Mukovskiy, S.N.Kurbakova, I.V.Korovina, Y.Yerzinkyan, V.V.Jura, V.I. Shmatova.³

² Buch F.L. Speech Act Deixis: Doctoral thesis. – Humboldt University of Berlin., 2023. <http://edoc.hu-berlin.de/18452/29348>; Todisco E. Deixis across languages, samples and methodologies: Doctoral thesis. – Universitat de les Illes Balears., 2022. – 105 p.; Пільгуй Н.М. Англомовний науковий агротехнічний дискурс: лінгвостилістичний та прагматичний аспекти: Автореф. дисс канд. філол. наук. – Запоріжжя, 2014. – 22 с.; Bühler K. The deictic field of language and deictic words. In: Jarvella, Robert J.; Klein, Wolfgang (eds.), Speech, Place, and Action. – Chichester: Wiley, 1982. – P. 74-113.; Levinson S.C. Deixis. In The handbook of pragmatics, edited by Lawrence R. Horn and Gregory Ward – Oxford: Blackwell, 2004. – P. 97-12.; Lyons J. Semantics, vol. 1 and 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.; Cornish F. Anadeixis and the signalling of discourse structure. Referential devices in the grammar-discourse interface. // Cohesion, coherence and cognition, 2018. – 26 p. <https://hal-univ-tlse2.archives-ouvertes.fr/hal-01925940>; Brisard F. Grounding: The epistemic footing of deixis and reference. Vol. 21. – Berlin New York: Walter de Gruyter, 2002. – 512 p.; Huang Y. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 367 p.; Hanks W.F. Explorations in the deictic field //Current anthropology 46 (2) 2005. – P.191-220.; Laurea P. S. "You" and "I", "now" and "then", and some related thoughts: PhD thesis. – Massachusetts: MIT, 2005. – 120 p.

³ Сребрянская Н.А. Дейксис в единицах языка. – Воронеж: Изд-во ВГПУ, 2003. – 136 с.; Муковский О.Л. Дейксис и анафора в русском, английском и испанском языках: Автореф. дисс д-ра филол. наук. – Санкт-

O‘zbek tilida ilmiy matnlarning funksional tahlili borasida M.Mukarramov o‘z tadqiqotlarini olib borgan bo‘lsa, deyxsisning nazariy asoslari haqidagi bilimlarni olimlar Sh.Safarov hamda M.Hakimovlarning⁴ asarlarida uchratamiz, R.Davlatova o‘zbek tilidagi deyktik birliklarni tahlilini yoritib bergan bo‘lib, ingliz tilidagi deyktik birliklar tasnifi masalasi bo‘yicha A.Shermatov ingliz tilidagi ilmiy-texnik matnlar tarkibidagi deyxsis hodisasini tadqiq qilgan, M.Umurzaqova o‘zbek tilidagi segment qurilmalardagi deyktik belgilarning ifodalanishini aniqlagan, S.Rahimov deyxsisning lingvistik tipologik hamda G.Boltaquovalar temporal deyxsisning qiyosiy tadqiqini olib borishgan.⁵

So‘nggi yillarda xorijiy xususan, ingliz tilshunos olimlari deyxsisning tilshunoslikdagi kognitiv hamda psixolingvistik tahlili muammosiga chuqur diqqatlarini qaratishgan hamda ularning tadqiqotlarida elektron matnlarning pragmatik tadqiqi yoki ularning kognitiv jarayondagi o‘rni masalasiga ko‘proq e‘tibor berishgan.⁶

Biroq shu kunga qadar ingliz va o‘zbek tillaridagi qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlardagi deyktik birliklarning qiyosiy tadqiqi olib borilmagan. Ushbu dissertatsiya qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlardagi deyktik birliklarning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlilini amalga oshirilganligi bilan boshqa tadqiqot mavzularidan farq qiladi. Mavzuyimizning dolzarbligi bugungi kunda aynan agromatnlarda deyktik birliklarning o‘rni, qo‘llanilish jihatlari hamda ikkala tildagi o‘xshash va farqli tomonlarini tadqiq etish va uni ingliz tilini boshqa yo‘nalishlarga o‘qitish jarayonida qo‘llash imkoni bilan belgilanadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Diskursning kognitiv-pragmatik va sotsiolingvistik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Петербург., 2015. – 26 с.; Курбакова С.Н. Языковой дейксис в речевой коммуникации (основы интерактивной теории языкового дейксиса): Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – М.: Российский государственный гуманитарный университет (РГГУ), 2009. – 49 с.; Коровина И. В. Параметры дейктической процедуры в англоязычной научной коммуникации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иваново., 2011, – 25 с.; Ерзинкян Е.Л. Дейктическая семантика слова. – Ереван: Ереван гос. универс., 1988. – 171с.; Жура В.В. Эмоциональный дейксис в вербальном поведении английской языковой личности (на материале англоязычной художественной литературы): Автореф дисс канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. – 14 с.; Шматова В.И. Дейксис в системе глагола современного английского языка: Автореф. дисс канд. филол. наук. – М., 1976. – 23 с.

⁴ Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантико-функциональном аспекте: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент., 1985. – 45 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.

⁵ Давлатова Р.Х. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент: Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2020. – 33 б.; Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнда дейксиснинг ифодаланishi: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 22 б.; Umurzoqova M. O‘zbek tilida segment qurilmalarning lingvopragmatik tadqiqi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. –Toshkent, 2019. – 55 b.; Рахимов С.Р. Проблема дейксиса как категории типологический лингвистики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1990. – 49 с.; Болтакулова Г.Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида темпораллик ва унинг дейктик хусусиятларининг киёсий-функционал тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 54 б.

⁶ Langacker R.W. Cognitive grammar. Cognition and pragmatics. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2009. – 399 p.; Talmy L. The Targeting System of Language. – Massachusetts: MIT Press, 2018. – 672 p.; Manley R.A. Gestures in the virtual environment: the use of deixis in Youtube gaming tutorials: PhD thesis. – University of Birmingham., 2023. <http://etheses.bham.ac.uk/id/eprint/13227/>.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarda deysis hodisasining ta'siri, deyktik birliklarning qo'llanilish jihatlari hamda ularning tahliliy jarayonida lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda matn va matn pragmatikasiga doir ma'lumotlari asosida agromatnning pragmatik xususiyatlarini aniqlash;

agromatnlarda indeksallik va deysis hodisasining jarayonlashuviga oid jihatlari hamda ulardagi aniqlikni ifodalovchi deyktik vositalarni asoslash;

agromatnlar tarkibida deysisning lingvopragmatik holatlarini dalillash; agromatnlarda deysis hodisasining lingvokognitiv belgilarini isbotlash.

Tadqiqotning obyektini sifatida deyktik ko'rsatish hodisasini aks ettiruvchi ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlardan olingan misollarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi agromatnlarda deysis holatining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik vositalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, qiyosiy va mantiqiy umumlashtirish, statistik, pragmatik hamda kognitiv tahlil kabi lingvistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

agromatnlarda aniqlikni ifodalovchi deyktik birliklarning ikki tilda qiyoslanishi asosida leksik-semantik va funksional xususiyatlari orqali, deyktik vositalarning matnda kommunikativ aniqlikni ta'minlashi hamda adresant va adresat o'rtasida semantik bog'lanishni shakllantirishdagi roli esa lingvopragmatik tomondan aniqlangan;

agromatnlarda makon va zamon ko'rsatkichlari faqat matnning ichki chegaralarida qo'llanilib, ingliz tilida here va there indeksikal belgilar agromatnlarda ko'pincha matn ichidagi makonni anglatishi hamda o'zbek tilida bu vaziyat bu yerda iborasi bilan ifodalanib, deyktik vosita sifatida ishlatilishi, agromatnlarda hozir, now kabi so'zlar indeksikal belgilardan ko'ra ko'proq deyktik vazifalarni bajarib kelishi ochib berilgan;

agromatnlar tarkibida uchraydigan indeksallik va deysis hodisalarining amalga oshish mexanizmlari pragmatik, kognitiv tahlil metodlari, nutq aktlari nazariyasi, kontekstual ma'noning shakllanishi hamda subyektiv kognitiv nuqtayi nazarning rolini yorituvchi ilmiy yondashuvlar asosida deysis va indeksallikning lingvistik mohiyati dalillangan;

o'zbek tilida hozirgi va o'tgan zamon birgalikda keyingi yillarda semasi bilan ifodalansa, ingliz tilida then kabi o'tmishga murojaat shaklida qo'llanilishi hamda hozirda va bugungi kunda iboralari muallif tomonidan hozirgi zamoni belgilashda ishlatilib, o'quvchiga o'tmishni ko'rsatib kelishi, ingliz tilidagi agromatnlarda recent, currently, over the last decades kabi iboralar taqvimiy bo'lmagan zamon deysisini bildirishi, o'zbek tilida esa vaqtga oid hodisalarga ishora orqali zamon deysisini ta'minlashi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi yuqori kurs talabalari hamda Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrantlari uchun ingliz va o'zbek tilini o'qitish amaliyotidagi matnning filologik tahlili, lingvopragmatika, qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya bo'yicha maxsus kurslarda ilmiy matnning lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish tizimi ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi agromatnlarda deysis hodisasining matn doirasida, matnning lingvistik mohiyati tarkibida tutgan vazifalari hamda ular ifodalagan lingvopragmatik va lingvokognitiv jihatlarining ilmiy uslubda qishloq xo'jaligiga oid matnlarni yozish qismlarida qo'llanilishiga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi fundamental ilmiy- nazariy qoidalar, qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq qo'yilishi, tahlil qilingan lisoniy materiallarning asosliligi, tadqiqot maqsadiga mos ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agromatnlarga xos lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlar haqida tadqiqotlar olib borish, tilshunoslikda agromatnlarni tahlilini o'zida mujassamlantiruvchi yangi yo'nalishlarni ochish imkoniyatini yaratadi. Deysis hodisasi agromatnlarda qanday ishlatilishini o'rganish, tilning pragmatik va kognitiv xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligi sohasidagi ilmiy va amaliy matnlardagi deysis ifodalarni solishtirish orqali, tilshunoslar uchun yangi nazariyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birgalikda, ingliz va o'zbek tillari agromatnlarni tahliliga bu yo'sinda yondashish qiyosiy tipologiya, kognitiv lingvistika va lingvistik pragmatika kabi fanlarda uchraydigan ayrim bahsli muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lingvistik metodlar asosida chog'ishtirma tahlil qilishda bakalavriat talabalariga "Qiyosiy tipologiya", "Qiyosiy tilshunoslik", magistrantlarga "Lingvistik pragmatikaga kirish", "Kognitiv lingvistika", "Lingvistik tahlil metodlari" kabi fanlardan maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarida hamda mazkur sohalar bo'yicha o'quv, uslubiy qo'llanmalar, darsliklar yaratish jarayonida tadbiiq qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlardagi deysis hodisasining lingvopragmatik hamda lingvokognitiv tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqot asosida:

Ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlardagi deysis hodisasining lingvopragmatik hamda lingvokognitiv tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqot asosida:

agromatnlarda aniqlikni ifodalovchi deysis birliklarining ikki tilda qiyoslanishi asosida leksik-semantik va funksional xususiyatlari orqali, deysis vositalarining matnda kommunikativ aniqlikni ta'minlashi hamda adresant va adresat o'rtasida semantik bog'lanishni shakllantirishdagi roli esa lingvopragmatik tomondan

aniqlanganligiga oid tavsiyalardan “Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida “Open food innovation university” (OFINU) loyihasini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti 2025-yil 9-apreldagi 04-338-son ma’lumotnomasi). Natijada qishloq xo‘jaligiga oid ingliz va o‘zbek tilidagi ilmiy matnlardagi deyktik belgilarning lingvopragmatik hamda kognitiv xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlaridan “Academic writing” modulida agromatnning boshqa matnlardan ajralib turuvchi farqli taraflari nazariy jihatdan tahlili asosida yangi o‘quv rejalari hamda modullarini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan;

agromatnlarda makon va zamon ko‘rsatkichlari faqat matnning ichki chegaralarida qo‘llanilib, ingliz tilida here va there indeksikal belgilar agromatnlarda ko‘pincha matn ichidagi makonni anglatishi hamda o‘zbek tilida bu vaziyat bu yerda iborasi bilan ifodalaniib, deyktik vosita sifatida ishlatilishi, agromatnlarda hozir, now kabi so‘zlar indeksikal belgilardan ko‘ra ko‘proq deyktik vazifalarni bajarib kelishi ochib berilganligi asosida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti hamda Central Mechanical Engineering Research Institute (CMERI) hamkorlikda 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan “O‘simliklar himoyasi va avtomatik sug‘orish tizimiga asoslangan tuproqlar monitoringida ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalanish (Uzb-Ind-2021-82)” nomli amaliy lohiyasida qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy materiallarning tarkibida deyktik birliklarning qo‘llanilishi va uning farqli jihatlari asosida fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalarning saviyasini oshirishda qo‘llanilgan (Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti 2025-yil 9-apreldagi 04-337-son ma’lumotnomasi). Natijada agromatnlar tarkibida uchraydigan indeksallik va deyksis hodisalarining amalga oshish mexanizmlari pragmatik, kognitiv tahlil metodlari, nutq aktlari nazariyasi, kontekstual ma’noning shakllanishi hamda subyektiv kognitiv nuqtayi nazarning rolini yoritishga erishilgan;

agromatnlar tarkibida uchraydigan indeksallik va deyksis hodisalarining amalga oshish mexanizmlari pragmatik, kognitiv tahlil metodlari, nutq aktlari nazariyasi, kontekstual ma’noning shakllanishi hamda subyektiv kognitiv nuqtayi nazarning rolini yorituvchi ilmiy yondashuvlar asosida deyksis va indeksallikning lingvistik mohiyati dalillanganligiga doir ilmiy xulosalaridan Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universtiteti Agrobiotexnologiyalar va Oziq-ovqat xavfsizligi instituti bilan Koreya Respublikasi Hankyong milliy universiteti bilan hamkorlikda Koreya hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan “Strengthening Capacity in Smart Horticultural field through Remodeling of Department of Fruit and Vegetable Science at Samarkand State University in Uzbekistan” nomli xalqaro loyihani amalga oshirishga xizmat qilgan (Samarqand davlat universtiteti Agrobiotexnologiyalar va Oziq-ovqat xavfsizligi institutining 2025-yil 14-iyundagi 10-3041-son ma’lumotnomasi). Natijada uning o‘quv jarayonida ilmiy ma’lumotni tartibga solish va agromatnda graunding hodisasining o‘rni va ta’siri hamda agromatnlarda aniqlikni ifodalovchi deyktik birliklarning matndagi umumiy struktura va ma’no uyg‘unligidagi o‘rni hamda ular tarkibidagi deyktik birliklarning kognitiv jarayondagi ahamiyatini aniqlashga erishilgan;

o‘zbek tilida hozirgi va o‘tgan zamon birgalikda keyingi yillarda semasi bilan ifodalansa, ingliz tilida then kabi o‘tmishga murojaat shaklida qo‘llanilishi hamda hozirda va bugungi kunda iboralari muallif tomonidan hozirgi zamoni belgilashda ishlatilib, o‘quvchiga o‘tmishni ko‘rsatib kelishi, ingliz tilidagi agromatnlarda recent, currently, over the last decades kabi iboralar taqvimiy bo‘lmagan zamon deysisini bildirishi, o‘zbek tilida esa vaqtga oid hodisalarga ishora orqali zamon deysisini ta‘minlashga doir ilmiy-nazariy xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar instituti va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta‘lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta‘lim yo‘nalishi yuqori kurs talabalari hamda Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistrantlari uchun ingliz va o‘zbek tilini o‘qitish amaliyotidagi matnning filologik tahlili, lingvopragmatika, qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya bo‘yicha maxsus kurslarda ilmiy matnning lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini o‘rganish tizimida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 19-apreldagi 1130/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada agromatnlarda deytik ko‘rsatishning vazifasi, uning nutqiy va ma‘noviy tuzilmadagi o‘rni hamda ular orqali yaratiladigan kognitiv maydonning kontekstual ma‘nolarni shakllantirish, ilmiy ma‘lumotni tartibga solish xususiyati graunding hodisasi (grounding) vositasida isbotlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalari e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola shu jumladan, 4 ta respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 168 sahifadan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqot material tavsiflangan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiya, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tilshunoslikda matn nazariyasi va uning lingvistik mohiyati**” deb nomlangan birinchi bobida matnning ta‘rifi, uning tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinishi hamda zamonaviy tilshunoslikdagi matnni o‘rganish borasidagi tendensiyalar, matn pragmatikasi, uning ilmiy matndagi xususan, agromatndagi vazifalari, deysis hodisasi, uning ingliz, rus va o‘zbek

tilshunoslari tomonidan o'rganilishi, deyksining turlarga bo'linishi kabilar yoritilgan.

Ushbu tadqiqotda matn tushunchasi tilshunoslik fanining eng murakkab va ko'p qirrali obyektlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Matn nafaqat gaplar majmui, balki o'zaro bog'lanish, mazmuniy izchillik va kontekstual dinamika asosida shakllanuvchi yagona lingvistik birlik deb hisoblanadi. Matnni o'rganishning uchta asosiy yo'nalishi mavjud (1-rasmga qarang) ⁷:



1-rasm. Matnni o'rganishning asosiy yo'nalishlari

Ko'pgina tadqiqotchilar matnni nutqiy faoliyat mahsuli deb bilishadi. Biroq, matnning lingvistik jihatlari (leksik-grammatik tuzilma, semantik yaxlitlik) ham uning nutqiy xususiyatlari (kommunikativ maqsad, situativlik) bilan birgalikda o'rganilishi kerak. Tilshunoslar, jumladan, rus tilshunoslari (E.S. Kubryakova, I.R. Galperin), V. Dressler, R.A. de Bogrande va Amerika deskriptiv tilshunoslari (Katz va Fodor) matnning o'ziga xos xususiyatlarini – ya'ni uning struktura, semantika, kommunikativlik va intertekstual bog'lanishlilik tamoyillarini – alohida ta'riflashga intilganlar. Ularning ta'riflariga ko'ra, matn nafaqat gaplar ketma-ketligidan iborat, balki u o'zaro semantik va sintaktik bog'lanishlar asosida yaxlit butunlik hosil qiluvchi murakkab tizimdir. Nutq subyektdan adresatga yo'naltiriluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi deya fikr bildirgan Matveyeva matnni obyektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishi deb ta'kidlagan.⁸ Matnning to'liq va aniq ta'rifini berish qiyin bo'lsa-da, uning yozma va og'zaki shakllari, semantik-struktur yaxlitligi, kommunikativ vazifalari va til tizimidagi o'rni haqidagi tadqiqotlar ushbu birlikning o'zaro murakkab aloqalari va tilshunoslikda mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos solmoqda. O'zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishida N.Turniyozov, B.Yo'ldoshev, A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Hakimov, X.Xayrullayev, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayeva kabi tilshunoslarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. N.Turniyozov, M.Hakimov matnni nutqning yozma shakli, kommunikativ tizim sifatida o'rganganlar.⁹

⁷ Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi – Toshkent: Ishonchli Hamkor, 2021. – B. 18.

⁸ Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категории. – Свердловск:Урал, 1990. – С.5.

⁹ Турниёзов Н. Матн лингвистикаси.-Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2003. – 86 б; Йо'лдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – 117 б.; Ҳақимов М.Ўзбек

Ilmiy matnlarda muallifning subyektiv-emotsional munosabati va kommunikativ maqsadlar aks etadi. Ilmiy matnlar – asosan informativ va didaktik funksiyaga ega bo'lsa-da, muallifning baholari (masalan, maqola yoki taqrizlar) orqali xususiy munosabat ham namoyon bo'lishi mumkin.¹⁰ Ilmiy matnni vaziyatdan mustaqil degan fikrni bildirgan M.Stroinska ilmiy matnni tuzuvchi berilgan ma'lumotlar to'g'ri talqin qilinishi va boshqa vaziyatda noaniqliklarni keltirib chiqarmasligi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni berishda yozish vaqtidagi va o'qilish holatidagi bo'lishi mumkin bo'lgan holatni hisobga oladi deya fikr bildirgan.¹¹

Agrodiskursning o'ziga xos xususiyatlari haqida V.Olyanich, u o'zida “Yer” pragmatik konseptining bir qismi namoyon qilib, insonning doimiy hamrohi bo'lgan oziq-ovqat va biosfera haqidagi bilimlarining jamlanmasini tashkil qilishini aytib o'tgan. U o'zida ilmiy materiallarni qamrab yangi bilimlar bilan boyib borganligi sababli ilmiy matnlar bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, hozirda rivojlanayotgan gastronomik turizm sohasi tufayli uni turistik diskurs bilan ham bog'lanishini aytib o'tgan.¹² Ingliz tilidagi agrotexnik diskursning pragmatikasi haqida ilmiy tadqiqot olim borgan olim N.Pilguyning fikriga ko'ra, agrotexnik diskurs bir nechta pragmatik vazifalarni bajaradi: ma'lumot beruvchi, kognitiv, bilim haqiqiylikini isbotlovchi, argumentativ, tushuntirish va didaktik funksiyalarni kiritadi.¹³ Badiiy matn kabi bo'yoqdorlikka ega bo'lmasada, ilmiy matn ham pragmatik vazifalarni bajaradi. Muallifning o'zi adresant sifatida maydonga chiqsa, adresat bo'lgan o'quvchi u orqali bilim olish, yangiliklardan xabardor bo'lishi ta'minlanadi, muallif neytral pozitsiyadan ba'zida hissiy-emotsional munosabatni bildiradi. Agromatnlarda muallif nafaqat yangiliklarni bayon qilish, balki kognitiv hamda bilim berish funksiyalarini ham bajaradi. Berilgan fikrga muallifning munosabati ham shular jumlasidandir.

Deyksis – nutqda obyekt, vaqt, makon yoki shaxsni ko'rsatish vositasini anglatuvchi hodisa – pragmatikaning markaziy tadqiqot obyektlaridan biridir. Yunoncha “ko'rsatish” ma'nosini anglatuvchi bu tushuncha, tilning egosentrik tabiatini aks ettirib, so'zlovchi, tinglovchi va kontekst o'rtasidagi dinamik munosabatni ifodalaydi. Deyktik semantikaga ega bo'lgan birliklarni belgilash uchun bir nechta atamalar mavjud: deyksis, indeksikallar, shifterlar va ularning atamalar sifatida birlashtirishni N.A. Srebryanskaya quyidagicha keltiradi:¹⁴ (2-rasm):

прагмалингвистикаси асослари. - Тошкент: Академнашр, 2013. –176 б.; Хагруллаев Х. Тилшунослик назарияси. – Самарқанд: “SamDChTI” nashriyoti, 2022. – 208 б.; Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. –160 б.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: Тош ДПИ нашри, 1989. – 426.; Қиличев Э. Матнинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: БухДУ нашри, 2000. – 36 б.; Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010. –152 б.

¹⁰ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.146.

¹¹ Stroinska M. Pragmatics of Scientific Discourse. Linguistik als Kulturwissenschaft Festschrift fiir Bernd Spillner zum 60. Geburtstag. – Berlin: Peter Lang, 2001. – P.199-209. //www.researchgate.net/publication/334330693

¹² Олянич А. В., Сухова Е. А. Агро - или сельскохозяйственный дискурс. // Энциклопедия Дискурсология. Дискурс-Пи. – Вып. 12 (3), 2015. – С. 178-180.

¹³ Пільгуй Н.М. Англомовний науковий агротехнічний дискурс: лінгвостилістичний та прагматичний аспекти: Автореф. дисс. канд. філол. наук. – Запоріжжя: Запорізького національного університету Міністерства освіти і науки, 2014. – С. 14.

¹⁴ Сребрянская Н.А. Дейксис и его проекции в художественном тексте. – Воронеж: ВГПУ, 2005. – С. 30.

Deyksis



2-rasm. Deyksisning turli atamalar bilan nomlanishi

Charlz Fillmor, K.Byuller, J.Yul va Levinson deyksisning shaxs, makon, zamon kabi an'anaviy turlarini ajratib, ularning nutqiy harakatning markaziy nuqtasi ("origo") bilan bog'liqligini ta'kidlagan.¹⁵ Deyksisning an'anaviy bo'lmagan diskurs, emotsional va sotsial deyksis kabi qo'shimcha turlar ham mavjud bo'lib, ular muloqot jarayonida yozuvchi va qabul qiluvchining o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradi. Byullerning fikricha, deyktik iboralar referentni faqat nutq aktining ijtimoiy, makon va zamon sharoitida aniqlay oladi. Bu jihatdan, anafora va katafora kabi ko'rsatish turlari ham deyksis doirasida talqin etiladi, chunki ular ham matn ichidagi mantiqiy bog'lanishni ta'minlash vositasi hisoblanadi. Deyksis hodisasi tilning ko'proq referensial jihatlari bilan qiziqqan tilshunoslar tomonidan chuqurroq o'rganilgan. Deskriptiv tilshunoslik vakillari deyksis hodisasiga dunyo tillaridagi universal xususiyat berib unga biroz e'tiborlarini qaratishgan. Tilshunoslikda deyksis nazariyasi tahlili, ayniqsa, jonli muloqot va badiiy matnlardagi qo'llanilishi orqali keng o'rganilgan bo'lsa-da, ilmiy matnlarda deyktik vositalarning rolini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan kamroq.

Tilshunos olim Sh.Safarov deyksisning nazariy jihatlarini bayon qilgan bo'lsa, S.Raximov deyksis muammosi tipologik tilshunoslik sifatida o'rganilishi xususida ilmiy izlanishlar olib borgan. A.Shermatov ingliz tilidagi ilmiy matnlarda deyksis qo'llanilishiga doir ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsa, D.Kiselyov anafora hodisasini tadqiq qilgan. R.Davlatova o'zbek matnlaridagi deyktik birliklarini ko'rsatib, ularning pragmatik va semantik nuqtalarini aniqlagan¹⁶.

Dissertatsiyaning "**Ingliz va o'zbek agromatnlarda deyksis hodisasi va uning lingvopragmatik talqini**" deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy matnlar, xususan, agromatnlarda berilgan matn doirasida ko'rsatish yoki ishora vazifasini bajaruvchi deyktik birliklarni tahlilida ularning belgilanishi, aniqlikni ifodalanishi hamda pragmatik tahlili yoritib berilgan.

¹⁵ Fillmore Ch. Lectures on Deixis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 42.; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P. 251.; Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – М.: Прогресс, 2000. – С. 20-31.; Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – P. 16.

¹⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.; Рахимов С.Р. Проблема дейксиса как категории типологической лингвистики: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – М., 1990. – 49 с.; Киселёв Д. А. Дискурсивно-прагматические аспекты репрезентативной функции знаменательных частей речи французского языка: Дисс. д-ра филол. наук. – Самарканд, 2019. – 230 с.; Давлатова Р.Х. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент: Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2020. – 33 б.; Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнда дейксиснинг ифодаланishi: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 22 б.

Akademik matnlardagi deyktik protsedurada har bir deyktik element presedent yoki oldingi kontekst elementiga (referent) murojaat qilishi kerak¹⁷ (3-rasm).



3-rasm. Deyktik koordinatalar sxemasi (Korovina)

Ingliz tilidagi *this, these* olmoshlari, o‘zbek tilidagi *bu, ushbu* kabi olmoshlar o‘zidan oldin kelgan jumla yoki kichik matnga nisbatan xulosaviy fikrni izohlab keladi hamda o‘quvchi diqqat - e’tiborini aynan voqea-hodisaning uzviyligiga, ayni deyktik markaz atrofidagi ish-harakatlarga qaratadi: *Natural selection is for individual fitness This is a major problem for agriculturalists. [Crop ecology 88]*

Agroirrigatsion yotqiziqlar, bu yerning sug‘orish tarixi ham shuncha qadimiydir. [Z.Abdushukurova O‘zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi 14]

Agromatlarda deyksis va indeksikallik tilning dinamikligini, kontekstga moslashuvchanligini va ilmiy bayonotlarning aniqligini ta’minlovchi asosiy vositalar bo‘lib, tilning kontekstga bog‘liq murojaat mexanizmlarini aks ettiradi. Ularni to‘g‘ri qo‘llash matnning ilmiy qiymatini oshirish bilan birga kommunikativ samaradorlikka hissa qo‘shadi. Deyktik ifodalar *bu, we* kabi olmoshlar *shu yerda, now* kabi so‘zlar gap ichida avvalroq keltirilgan yoki nazarda tutilgan referentlarga ishora qilib, nutqiy uzviylikni ta’minlaydi. Agromatlarda deyksis va indeksikallik hodisasining birgalikda namoyon bo‘lish holatlari ham kuzatiladi: *More recent models of climate change adaptations have been developed for African countries. These models incorporated climate change perceptions as explanatory variable. [Lipper Climate smart agriculture:140]*

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, issiqxonada Ginkgo biloba ko‘chatlari va ko‘chatlarining morfologik xususiyatlari va o‘sish sur‘atlari nisbatan eng intensiv o‘sishi qayd etilgan. [Материалы научно-практической конференции:611]

O‘zbek tilidagi agromatlarda *biz* olmoshi, ingliz tilida *we* olmoshi juda mahsuldor tarzda deyktik belgi sifatida kelib, o‘zida inklyuzivlik ya’ni muallif va o‘quvchining ham ishtiroki zarurligini belgilab, *we* - *biz* olmoshi o‘quvchini emas, asosan muallifni nazarda tutib, u orqali ishora ifodalanadi. Inklyuziv va eksklyuziv tarzda berish orqali birinchi shaxsning ko‘plikda birgalikda yoki o‘quvchidan alohida ekanligi belgilab beriladi. *We* - *biz* kabi shaxs deyksisi ilmiy matnlarda qo‘llanilganda olib borilgan tadqiqotlarda ishtirok etgan, ishtirok etmoqchi bo‘lgan mualliflar jamoasini yaxlitligini ifodalagan holda ishora vazifasida keladi: *We first consider the genetic correlation .. [Bernardo Essentials of plant breeding 140]*

Biz dala tajribasini olib bormoqdamiz. [Agroilm 5(68) son 2020 72]

Uchinchi shaxsni belgilashda faqatgina ingliz tilida birlik shaklda gender xususiyati mavjud bo‘lib, u uch shaklda ifodalanadi (*he, she, it*), biroq o‘zbek tilida gender belgisi ajratilmagan: *Olafur Arnalds has led the work on defining the characteristics of the soils* *He identifies two main types: andosols comprising*

¹⁷ Korovina I.V. System of deictic coordinates and intertextual deixis in academic discourse // Russian Journal of Linguistics 24 (4), 2020. – P. 881.

over 50% of the total and vitrisols comprising over 30%. [Crofts Healing the land: 26]

Atoqli otlar ishoraviylik vazifasiga xoslanganligi bilan asl deyktik birliklar sirasiga kiradi va muallifning topilmalariga izlanishlariga mavzu doirasida aniqlik kiritilib boriladi: *Genetik-seleksion tadqiqotlarda statistik ko'rsatkichlarning katta va kichik tanlanmalarida Dospexov B.A. (1985) uslubida ishlovdan o'tkazilgan. [Agroilm 1 (106) 2025:18]*

It also needs to be acknowledged, as suggested by Nhemachena and Hassan (2007) and Mertz et al. (2009), [Connor Crop ecology: 147]

Agar muallif agromatnda zamon deyksisidan samarali foydalansa, u holda o'quvchiga kontekstdagi vaqtni to'g'ri yetkazish imkoni paydo bo'ladi, aks holda o'quvchi matn davomida muallifning fikrini tushinishda qiyinchilikka duch keladi. Zamonni bildiruvchi indeksikallar va deyktik vositalar faqatgina berilgan matn tarkibidagina muallif bildirmoqchi bo'lgan paytni ifodalashi mumkin. *Hozir* yoki *now* so'zi eng katta indeksikal belgi hisoblansa, o'zbek tilida *bugungi kunda bu yil* kabi so'zlar, ingliz tilida *ko'proq now, at present* so'zlari shaklida deyktik ko'rsatishni amalga oshiradi. *Hozir- now* so'zlari agromatnlarda indeksikal belgi bo'lib emas, balki ko'p holatlarda deyktik vosita sifatida yuzaga chiqadi: *Legume-cereal rotations of the eighteenth century provide..... that are often now promoted without appreciation of their low productivity [Connor Crop ecology: 25]*

Hozirda mazkur cho'llarning ko'pchilik qismi o'zlashtirib borilmoqda. [Z.Z.Abdushukurova O'zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi: 10]

Kichik matn ichidagi barcha izohlar, ilmiy faktlar, tafsilotlar, holatlar, tajribalar va boshqa harakatlar aynan *here, bu yerda* kabi deyktik markaz atrofida jamlangan hamda deyktik ko'rsatishga ega. Makonni bildiruvchi asosiy indeksikal belgidan biri bo'lish *here* so'zi bilan agromatnlarda makon munosabatlarini berilgan holatlarda, muallif u orqali o'zi uchun yaqin masofani anglatmoqchiligi ko'p hollarda o'quvchi uchun boshqa ma'noda bo'lishi bilan ahamiyatlidir. O'zbek tilida esa *bu yerda* iborasi indeksikal belgidan farqli o'laroq, deyktik belgi bo'lib, o'zidan oldingi kelgan joy nomiga referent shaklida namoyon bo'ladi: *Here, it was worth noting, the chelating agent properties....., are of great importance [Journal of agriculture and food research 12 2023 100552 .4]*

Keyingi davrda bu yerlardagi yotqiziqalar ko'p marotaba qayta yotqizilgan. [Z.Z.Abdushukurova O'zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi: 22]

Agromatnlarda odatda adresatning ma'lumotlarni tushunish darajasi so'zlovchi to'g'rirog'i muallifning kodlash vaqti (KV) dan kelib chiqadi va shu asnodan matndagi vaqtga aniqlik kiritiladi. *Hozirda* va *bugungi kunda* muallif nuqtayi nazaridan hozirni belgilab kelayotgan bo'lsada, o'qiyotgan o'quvchi uchun bu avval ya'ni o'tmish bilan bog'liqlikni ko'rsata oladi: *Aynan bugungi kunda yetishtirilgan meva va sabzavotlar ... nobud bo'lmoqda. [Agroilm 5(68) son 2020:38]*


Vaqtning belgilovchi so'zlardan *recent, currently, over the last decades, last century* kabi iboralar ingliz tilidagi agromantlarda tarkibida kelib, taqvimiy bo'lmagan zamon deyksisini bildiradi: *Recent research has also shown that oats polyphenols have anti-inflammatory, antiproliferative, and anti-itching properties [Journal of agriculture and food research 122023 1006197: 2]*

Matn tarkibidagi birliklarni ko'rsatish vazifasini *moreover, therefore* kabi ravishlar ham diskurs deyxisi vazifasi qatorida keladi: *Therefore, the link between climate change and poverty is vital for responses to climate change in the region. In this regard, climate smart agriculture may help reduce vulnerability by stabilizing.* [Lipper Climate smart agriculture: 482]

Ingliz va o'zbek tillaridagi agromatnlarda diskurs deyxisi matn ichidagi bog'liqlikni ko'rsatib, muallif ishora qilayotgan hodisa, shaxs, zamoni ko'rsatishdan tashqari, matn tarkibidagi ma'lumotlarga qayta murojaat uchun ham foydalaniladi, ba'zi hollarda esa endi berilayotgan ma'lumotga e'tiborni jalb qilib, ular haqidagi ma'lumotni berish holatlari ham uchraydi. Matnning annotatsiyasida beriladigan *this, present, ushbu* deyktik vositalari ilmiy maqolaning keyingi qismiga ishorani amalga oshiradi: *This chapter analyzes the extent to which these secular maize yield trends can help offset the projected relative decline of maize yields resulting from a warming climate.* [Lipper Climate smart agriculture:162]

Ushbu maqolada kuzgi bug'doy don hosiliga sholi poxoli bilan birga mahalliy o'g'itlar qo'llash fonida mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. [Agroilm 3 (96) 2023: 8]

Ilmiy matnlarda, xususan agromatnlarda deyktik elementlar quyidagi vazifalarni bajaradi (4-rasmga qarang):



4-rasm. Agromatnlarda deyktik elementlarning vazifalari

Qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarda ishlatilgan deyktik vositalar bir qancha pragmalingsistik vazifalar: referensiallik, eksplikatura, implikatura, presuppozitsiya hodisasi va nutq aktlari kabilarni bajaradi. Agromatnlardagi ayni ishora qilish vazifasini bajaruvchi holatlarda deyxisning referensiallik xususiyati yuzaga chiqadi. Ular matndagi muallifning fikrini tadqiqotning qismlari va natijalarni esa muhokama bilan bog'lash funksiyalarini amalga oshiradi, bu muhim mexanizm bo'lib, muallif o'z ilmiy ishining qamrovini havolalar keltirish, mualliflarga, matnning qismlariga makon yoki zamonga ishora qilish orqali kengaytirishi va o'quvchiga natijalarining ishonchliligini ko'rsatib berishi mumkin. Deyktik birliklarning anaforik hamda kataforik holatda kelishi, jadvallar va rasmlarga ishorani beruvchi deyktik vositalar referensiallikni bildirib kela oladi: *Tajriba maydonlariga ekilgan dorivor moychechak o'simligining vegetatsiyasi davomida fenologik kuzatuv ishlari olib borildi va bular quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).* [Agroilm 5(68) son 2020 46]

A typical FL architecture is based on four main parts whichshown in Fig. 3[Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100590:3]

Muallif koreferentlik orqali ishora qilgan tadqiqotchilarning ishlarini o'quvchiga ishora bilan bir barobarda ulardan o'zining biroz yiroqda va ozgina tafovutlarga ega yangiliklar berayotganligini ham ishora qila oladi. Uchinchi shaxs

bilan kelgan holatlar, odatda mavzu mazmun – mohiyatidan kelib chiqib obyektiv ohang va masofani yaratishi mumkin: *The findings thus recorded concur with those reported earlier by Li et al., 2021 [25]. In their work, they reported a continuous and steady reduction in the total phenolic and flavonoid concentrations corresponding to the gradual maturation of the R. chingii berries. [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100603 5]*

Xorijiy mamlakatlarning klasterlar shakllantirish milliy modellarini tahlil qilib aytish mumkinki, ular ... turlicha bo‘lib, quyidagi 1-jadvalda milliy modellarning xususiyatlari ochib berilgan. [Hasanov Respublika konferensiyasi to‘plam:45]

Presuppozitsiya hodisasi agromatnlarda ko‘proq zamon-makon munosabatlarini ifodalashda yoki ayni matn ichidagi ishorani amalga oshirishda faol qo‘llaniladi va muallif hamda o‘quvchi auditoriyasi o‘rtasidagi aloqaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Birinchi shaxsning agromatnlarda berilishi bu muallifning obro‘cini va u o‘tkazgan tajribaga ishonishini o‘quvchi tomonidan tan olinishi taxmin qilinadi, mualliflar berilgan fikrlarga o‘zining natijalaridan kelib chiqib fikrini beradi va o‘quvchi ham bu jarayonda tadqiqotchining rolini tan oladi hamda muallif o‘z o‘quvchisini tadqiqot jarayoniga yaqinlashtirishi hamkorlik tuyg‘usini berishi mumkin bo‘lsa-da, ilmiy tadqiqot bilan yaqin bo‘lmagan o‘quvchi bu holatda begonalikni belgilab berishi ham mumkin, muallif o‘zini juda ko‘p ta’kidlashi ham o‘quvchini asosiy mavzudan chalg‘itishi mumkin, shu sababdan ham agromatnlarda shaxs deysisi juda ko‘plab holatlarda kirish va xulosa qismlarida o‘quvchiga eslatma tarzida keladi: *By observing individual fields over years, we can understand the effects of crop rotation, soil amendments, and removal of harvested material on soil properties. [Connor Crop ecology: 14]*

Bizning tadqiqot natijalarimiz bo‘yicha behi mevasi nisbatan oltingugurtga boy ekanligi bilan ham xarakterlidir. [Hasanov Respublika konf. to‘plami: 503]

Eksplikatura esa agromatnlarning ajralmas qismi hisoblanib, muallifning izlanishlarini ochiq - oydin bayonini berishga xizmat qiladi va deyktiklar mazmunni ochib berishga xizmat qiluvchi vositadir: *Ko‘plab olimlarning ishlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston tuproqlarida boshqa tuproq - iqlim mintaqalariga qaraganda ancha kam miqdorda zamburug‘ murtaklari bo‘ladi. Bu ma’lumotlar bizning tadqiqotlarimizda ham tasdiqlanmoqda. [Ilmiy-amaliy seminar materiallari:158].*

Grays implikaturani maksimlarga bo‘lgan holda izohlab bergan. Grays maksimlariga tayangan holda deysis hodisasi tahlil qilinganda quyidagicha izoh shakllanadi: Miqdor tamoyili (Maxim of quantity)ga asosan agromatnlarda berilayotgan ma’lumotlarning hajmi juda ko‘payib ketishini oldini olish maqsadida unga ishora qilib jadvalda beriladi va uni muallif unga qisqacha havola berish yordamida ishora qiladi: *We ran a spatial error model and presented the results in the supplementary material (Table S1). [Journal of Agriculture and Food Research 6 (2021) 100204:4]*

Sifat (maxim of quality) tamoyilining agromatnlardagi ifodasi sifatida shuni aytish lozimki, mualliflar aniq xulosalar berishdan qochishadi. Sababi ilm-fandagi o‘zgarishlar tufayli aniqlangan yangilikni doimo shunday bo‘lib qoladi deb ta’rif

berishmaydi va bunda aniqlikni berish uchun antesedentning mavjudligi ham talab qilinadi: *Previous studies assessing the availability of grocery stores have been conducted in rural areas [61,62], and when combined with our findings, could be potentially used in such programs. [Lipper Climate smart agriculture: 287]*

Moslik (maxim of relevance) bo'yicha olimlar keltirgan ma'lumotlarni mavzu doirasida bo'lishini ta'minlash maqsadida uning manbasiga ishora sifatida havolalarni keltirish orqali uni bayon qilishadi: *The effect shows the percentage change in travel time to fresh food stores in response to a unit change of a selected independent variable (see notes below the table), [Journal of Agriculture and Food Research 6 (2021) 100204: 4]*

Muloqot uslubi (tarzi)(maxim of manner) tamoyiliga¹⁸ asosan muallif aniqlik va noaniqlikdan qochishga urg'u beradi. Deyktik birliklar esa matn ichida ma'lumotlarga ishora qilish jaryonida aniq bir ma'lumotni ko'rsatishga qaratilgan deyktik birliklarga ishora qilishadi: *This experiment is designed to test the TFS anti-fatigue effect ... It showed that TFS had anti-fatigue and anti-oxidation effects on pole-climbing and swimming mice. [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100560: 8]*

Agromatnlardagi deyktik ko'rsatishni bildiruvchi vositalar tadqiqotchilar o'z xulosalarini qanday yetkazishlarini, da'volarni tasdiqlashlarini va o'z tinglovchilari bilan qanday kommunikatsiya qilishlarini tushunish uchun nutq aktlarini pragmatik tahlil qilish imkonini beradi. Assertivlar sifatida shaxs deyksisi ko'pgina holatlarda muallif fikrini bildiruvchi bayonotlarda yuzaga chiqadi va matnda muallifning xulosasi, farazini ko'rsatish uchun shu turdagi fe'llar bilan qo'llaniladi: *The results show an inverse relationship between phenolic chemicals (phenolic acids and flavonoids), fibers, and health consequences, ... [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100619: 14]*

Muallif o'zi bajarayotgan tadqiqot ishining kelajakda asqotishi mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rsatish maqsadida direktivlardan foydalanadi: *The composition of fatty acids in mushrooms can vary ... and further research is needed to fully understand the nutritional and health benefits of these compounds in mushrooms. [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100620:7]*

Komissivlar vositasida mualliflar o'z tadqiqot ishini davomidagi bajarilayotgan ishlar-tartibini matn ichida belgilab ko'rsatib bera olish imkoniga ega bo'ladi: *In the next section the perception-adoption link will be explored further by means of econometric analysis. [Lipper Climate smart agriculture: 162]*

Ilmiy matnlar tarkibida ekpressivlik ko'p bo'lmasada, matnning ma'lum qismlarida uchraydi va jarayonda odatda faktual ma'lumotlarning ko'p keltirilmasligi ham bir ko'rsatkich hisoblanadi, ilmiy ishlarning "acknowledgements" ya'ni minnatdorchilik qismida muallifning bergan munosabati misol bo'ladi: *We are grateful to the TerrAfrica World Bank for providing funding for this study. We are also grateful We thank ministries of agriculture and environment ... [Lipper Climate smart agriculture 474]*

Ilmiy matnlarda deklarativlar odatda natijalarning ishonchliligini bayon qilishda, nashrlardagi ilmiy bayonotning yangi ekanligini anglatish maqsadida

¹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 145.

beriladi: *All the means less than the above subtracted values are declared as significantly different from the largest mean. [Kumar Research Methodology:226]*

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, 1-variant 30x12 sxemadagi o'simlik bo'yi ko'rsatkich o'rtacha 45,5 tashkil qilgan bo'lsa, 3 variant 30x16 sxemadagi nisbatan 4,2 sm yuqori bo'lganligi aniqlandi. [Agroilm 3-(96)son 2023: 17]

Ilmiy tadqiqotlarni bayon qiluvchi matnlarda albatta avvalgi qilingan tadqiqotlarni eslash unga ishora qilish yoki ko'rsatish orqali matnni shakllantirishda intertekstuallik ham yuzaga chiqadi: *For the purpose of this paper we will refer to these practices collectively as SI practices, recognizing that they are also closely linked to CSA objectives. [Lipper Climate smart agriculture 264]*

Agromatlarda deyktik vositalarning to'g'ri tanlovi matnning ilmiy jihatdan ishonchliligini oshiradi, mazmunni qisqa va aniq qiladi, o'quvchiga murakkab ma'lumotlarni tizimli tushunish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda shaxs, zamon va diskurs deyxsisining uyg'un kombinatsiyasi matnning yaxlitligini ta'minlovchi kalitdir.


Dissertatsiyaning **“Ingliz va o'zbek agromatlarida deyxsisning lingvokognitiv jihatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o'zbek tillaridagi agromatlarda deyktik va anaforik ko'rsatishning ifodalanishi, deyktik markaz va uning lingvistik tahlili hamda deyktik vositalarning ikki tildagi lingvokognitiv tahlili berilgan.

O'zbek tilidagi agromatlarda deyktik ko'rsatishning kataforik referent shaklida ifodalanish holatlari ingliz tilidan ko'ra ko'proq uchraydi. Olimlar olingan natijalar yoki xulosalarni ayni shu ko'rinishda taqdim qilishadi: *Bundan ko'rinadiki, tuproqqa ekilgan urug'larning unuvchanligi va nihollarning yashovchanligi foydalangan stimulyator turiga, tuproqning sho'rlanishiga bog'liq bo'ldi. [Agroilm 5(68) son 2020 41]*

O'zbek tilida ko'rsatish olmoshlarining bir necha shakli birgina otning antesedenti sifatida takror ishlatilish imkoniga ega va bunda muallif anaforik ko'rsatishni berish jarayonida bir emas, balki ikki xil shaklda o'quvchiga beradi, bir abzats ichida bir jumla ham anaforik va kataforik referent sifatida ishlatilishi mumkin: *Elyuviy yotqiziqlari tog' platolari va baland tekisliklarda ko'p uchraydi. Bunday yotqiziqlar tuproq hosil bo'lishi uchun qulay emas. O'zlarining paydo bo'lgan sharoitiga qarab ... tarkiblari har xil bo'lishi mumkin. [Z.Z.Abdushukurova O'zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi 13]*

Agromatlar tarkibida deyktik va anaforik ko'rsatishning raqamlarda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: (1 – jadval)

1.1.-jadval



Agromatlar tarkibida havolalarning berilishi ham deyktik ko'rsatishni bildirib u quyidagi shakllarda berilishi mumkin:

- Bir nechta manbani o'zida qamrab olgan havolalar: *Most populations comprise individuals that are genetically distinct with each individual with a distinct production potential* (Hartley, 1998; Okwuagwu et al., 2008; Yeow et al., 1982). [Agricultural Systems 212 (2023) 103756: 2]

Ma'lumotlarga qaraganda (Mavlyanova R.F., Sulaymanov B.A., Boltaev B.S., 2017), biologik azotfiksatsiya yaxshi o'tishi uchun tuproq govak va namlik ChDNSga nisbatan 70% bo'lishi talab etiladi. [Agroilm 1 (106) 2025:34]

Birgina manbaga ishora qiluvchi havolalar: No'xat navlari tarkibida 20-30 % oqsil, 5-8 % moy hamda 1 kg da 120 grammgacha hazm qilinadigan protein borligi aniqlangan [1;48-b.]. [Agroilm 1 (106) 2025:36]

Qavs ichida yilni o'zini berib havola qilish: Z. Jumaev, A. Sirimov (1995), Israilov I.A., Karimov A., Kurbonov A. (2017), moshni takroriy ekin sifatida foydalanish yaxshi natija beradi. [Agroilm 1 (106) 2025:33]


Bir muallifning bir nechta ishlariga ishora qilgan holda vertikal presuppozitsiyani ko'rsatish: *In a study case of a plain surrounded by mountains, detailed studies at cropping system level* (Lairez et al., 2020; Lairez et al., 2023) have clearly shown that the current management of maize is not sustainable. [Lipper Crop ecology 357]

Qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlar tarkibida havolalarni faqatgina ma'lumot berilgandan so'ngra qo'llanishidan tashqari ba'zida muallifning fikri boshqa olimning nuqtayi nazariga to'g'ri kelmasligi yoki mushtarak fikrga ega ekanligini ko'rsatish uchun ham berilishi mumkin. Bunda shaxs deysisi atoqli otlar yordamida ko'rsatilsa ham, havolalar ulardagi zamonga ishora qilish vazifasini bajaradi.

Agromatnlarda deyktik ko'rsatishning raqamlarda va foizlar nisbatida namoyon bo'lishi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (2-3-jadvalga qarang):


1.2.-jadval

Agromatnlarda deyktik ko'rsatishning namoyon bo'lishi (raqamlarda)



1.3.-jadval

Agromatnlarda deyktik ko'rsatishning namoyon bo'lishi (foizda)



Agromatnlarda muallif odatda deyktik markazda turadi va buni yakka muallif bo'lsa ham, jamoaviy yozilgan matnda ham "we" - "biz" deb keltiriladi, o'zbek tilidagi mavjud egalik qo'shimchalari va o'zlik olmoshlari shaxsni matndagi deyktik markazga yo'naltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi, ingliz tilidan farqli ravishda ayni shu qo'shimchalarning o'zi ham matn davomida shaxsni deyktik markazda ushlab turadigan bir vosita bo'la oladi: *Kartoshkaning ... navlar to'plamini ... baholash o'zimiz ishlab chiqqan uslub asosida (2004, 2018) amalga oshiriladi. [Hasanov Respublika konferensiyasi to'plami 241]*

Agromatnlarda deyktik markazga yangi shaxsni keltirish ko'pgina holatlarda boshqa mualliflarning ishlarini eslatish yoki mazkur sohada bajarilgan yutuqlarni va o'tkazilgan tajribalarni keltirish bilan birgalikda kechadi: *To date, to the authors' knowledge, there has been no published work on how a spatial calibration approach to downscaling would [or could] perform with these complex mechanistic crop models at the within-field scale. The spatial calibration approach advocated previously by Pasquel et al. (2022 b).... Thus, Pasquel et al.'s (2022b) approach to spatial calibration was not at a predefined grid/pixel size.[Agricultural systems 212 (2023)103773:3]*

Biz taklif qilmoqchi bo'lgan tavsiyalar Abdulahad Zaxidovning ... monografiyasida keltirilgan Muallifning fikricha, ... isrofgarchilik hisoblanadi.[Agroilm 4 (92) 2023:75]

Ilmiy faktlarga asoslangan agromatnlarda makonga ishora qilish odatda muallifning ilmiy qarashlaridan kelib chiqqan holatda, tajriba olib borilgan makonga ishora holatlari asosiy o'rinlarda turadi: *Similar trends have been seen in Sweden, where the average milk yield per cow delivered to dairies increased from 6.1 t in 1990 to 9.1 t in 2020 (FAO, 2022). [Agricultural systems 212 (2023)103779:2]*

O'quvchi makonni aniqlashi uchun muallifning yurti yoki maqolada berilgan boshqa vositalar masalan, davlat nomiga ayni vaqtda deyktik ko'rsatishni amalga oshirishi lozim: *Meva va sabzavotlarni qayta ishlashda vujudga keladigan nobudgarchiliklarni kamaytirish bizning respublikamiz uchun ham yechilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi. [Agroilm 5(68) son 2020 38]*

Agromatnlarda deyktik markazdagi makonni belgilab berishda yuqoridagi kabi nisbiy ergash gaplar ustunlik qilsa-da, uning deyktik markazda qolishini ta'minlovchi vosita sifatida *here* va *there* ravishlari o'zbek tilida esa *bu joy* faol ravishda qo'llaniladi: *The analysis here suggests several principles to guide the introduction of innovation. [Lipper Climate smart agriculture 84]*

Archa unsimon» qurtini ... ro'yxatga olish, zararkunanda tarqalgan joylar va hududlar aniqlanishi ... ko'chatlarining bu joylardan boshqa joylarga yuborilishi qat'iy taqiqlanishi shart. [O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi 11 2023: 16]

O'zbek tilidagi agromatnlarda ham deyktik markazdagi QACHON degan tushunchani faqatgina muallif nuqtayi nazaridan belgilab olish mumkin. Zamonni bir deyktik markazda ushlab turadigan birliklar albatta ravishlar va ergashgan qo'shma gaplardir. O'zbek tilida hozirgi zamon va o'tgan zamon deyktik markazni belgilashda asosiy ko'rsatkichni ifodalab kelsa, kelasi zamon shakllari majhul nisbatda kelgan holatda kirish qismida aks etadi: *Hozirgi kunga kelib, ...*

sugʻoriladigan yerlarida “gidromorf” suv rejimi shakllangan. [Respublika seminari toʻplami: 15]

Ingliz tilidagi *before, after* iboralari agromatnlar tarkibida kelgan holatda oʻquvchining oʻzi muallif berayotgan voqea-hodisalarni *before* ravishi koʻrsatkichi orqali hozirgi vaqtdan oldin boʻlganligiga ishora qiladi hozirdan oldin boʻlganlarni oʻtmish va tavsiyalarini kelajak vaqtga nisbatan olishi kerak boʻladi: *Before applying RDMA to support adaptation decisions in irrigation, climate change impacts were quantified using different well-established process based models* [Lipper Climate smart agriculture 289]

Deyktik belgilarni kognitiv tahlildagi “grounding theory” yaʼni nazariy asoslash orqali (graunding nazariyasi) R.Langaker, F.Brizard, T.Janssen, R.Lauri, R.Epshteyn kabi bir qancha kognitiv tilshunoslik vakillari olimlar tomonidan tahlil qilingan. Langaker taʼriflagan graundingning bir turi boʻlmish nominal graunding sirasiga ingliz tilidagi artikl kiritilgan. Agromatnlarda oʻquvchining diqqatiga uni yakka holatdiligini anglatish bilan birgalikda birinchi marotaba, yaʼni tajribaning dastlabki bosqichida ekanligini bildirish uchun qoʻllaniladi, shu holatda *a* noaniq artikli nominal graundingni matn tarkibidagi koʻrsatuvchisi boʻlib ishtirok etadi: *In the chelation process, a metal ion connects with two or more coordination atoms [non-metal] in the same molecule through a coordination bond.* [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100552:4]

Oʻsha olmoshining deyktik birlik sifatida ifodalanishida muallifga ham oʻquvchiga ham anchagina uzoqda joylashganligini bildiradi: *Oʻzbekistonda 1921 yilda qorabayir ot zavodini tashkil qilindi..... Mazkur ot zavodida oʻsha paytda ... 2 bosh aygʻirlar alohida ahamiyatga kasb etgan.* [Agroilm 3 (96) 48].

Agromatnlar tarkibidagi miqdorga ishora qiluvchi soʻzlarning berilishi muallifning berilgan misolga nisbatan munosabatini belgilaydi. Ingliz tilida *most, several, some* kabi olmoshlar kiritilsa, oʻzbek tilida ularning ekvivalentlari boʻlib, *koʻp- koʻplab- koʻpchilik, bir qancha, biroz* kabi soʻzlardan foydalaniladi: *Pavlovniyaning juda koʻp turlari va navlari mavjud. Biz barcha turlarini koʻrib chiqib, eng istiqbolli boʻlgan 7 ta turidan foydalanish mumkin.* [Agroilm 3 (96) 31]

Analyses were done of all the samples, in three replicates. [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100603:2]

Ingliz va oʻzbek tillaridagi agromantlarda deyktik birliklarning nominal graundingi qiyosiy tahlili quyidagicha koʻrinish oladi:

1.4.-jadval

Agromatnlar tarkibidagi deyktik birliklarning nominal graundingni ifodalashi

	Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
Aniqlik	<i>the</i> artikli, <i>this, that, these, those</i> egalik sifatleri	<i>mazkur, mana bu, ushbu, bu, mana shu, aynan mana shu, egalik, shaxs- son</i> qoʻshimchalari
Miqdor	<i>a</i> artikli, <i>some, all, several, most</i>	<i>koʻp- koʻplab- koʻpchilik, bir qancha, biroz, barcha</i>
Makon	<i>This, that, those, these</i>	<i>bu, mana bu, shu, ana shu</i>
Zamon	<i>This [time, period]</i>	<i>shu [payt, kun], oʻsha, u</i>

Grounding nazariyasining ikkinchi bo‘lagi bo‘lmish gap graundingi tushunchasi kognitiv lingvistika, xususan, kognitiv grammatika nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilining modal fe‘llar tizimi juda boyligi sabab, modal fe‘llar vositasida tadqiqotchining fikr-mulohazalarini ifodalashi agromatnlarda ko‘p uchraydi. *Can* modal fe‘li, tadqiqotchining o‘z natijalari haqidagi ishonchining yuqori ekanligini bildirsa ham unda biroz bo‘lsada, gumon borligini ham anglatadi va masofa jihatidan berilgan vaqtga yaqin muddatni anglata oladi. Uning uzoqroq muddatga [distal] ishorasini beruvchi modallik sifatida *could* va *would* keltiriladi: *Thus, the findings of this research suggest that the ethanolic extract of R. chingii can find use as a potential therapeutic agent ... [Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100603: 6]*

May modal fe‘lida uning matnga aloqasi kuchli ekanligini aniqlanganligini, *might* esa muallifning qarashlariga ko‘proq tegishli bo‘lib, referensiallikni kamroq ifodalaydi, masofaning uzoqligini-*might* va yaqinligini - *may* bildiradi: *Basis risk may be an even bigger problem [Lipper Climate smart agriculture 277]*

Second, another zone might be available but lack prior requisite investments.... [Lipper Climate smart agriculture 352]

Ingliz tilidagi agromatnlarda *should* modal fe‘li muallifning fikrini to‘liq asoslaydi va u berilgan fikrga ishonchi balandligini, subyektiv fikr bayon qilinayotganligini bildiradi. Olimlar har qanday yangilik vaqt o‘tib mazmunan eskirishi hisobiga tavsiyalarni *should*, *can* kabilar bilan berishadi. Tugallangan gaplardagi modal fe‘llarning qo‘llanilmaganligi “aniqlikni” bildiruvchi belgi hisoblanadi. O‘zbek tilida modallikni *kerak*, *zarur*, *lozim*, *mumkin* kabi so‘zlar bajaradi, muallif tomonidan aniqlik to‘liq emasligi sabab ham *mumkin* so‘zidan foydalanish fikrning reallikdagi subyektivlik darajasini belgilab beradi: *Shuning uchun tola hosildorligi mahalliy navlar bilan chatishtirish natijasida yuqori tola hosildorligiga erishish mumkin. [Agroilm 3 (96) 3].*

Tizimli jarayonlarning tasvirida agromatnlarda ayni bir zamoni qo‘llash o‘quvchining diqqat- e‘tiborini bir nuqtada ushlashga ko‘makchi vosita hisoblanadi. Kognitiv tahlil doirasida gap graundingining agromatnlarda tarkibidagi deyktik birliklarning ingliz va o‘zbek tillarida qiyosiy tahlili quyidagicha beriladi:

1.5.-jadval

Agromatnlarda gap graundingni ifodalash vositalari

Modallik	Can may, might, could, would, should, must	Mumkin, kerak, lozim, zarur
Zamon	harakatning davomiyligi- <i>present continuous</i> , tamomlanganligi- <i>present perfect</i> yoki takrorlanuvchanligini- <i>present simple</i> ifodalaydi. Evolyutsion jarayonlarni ifodalash uchun <i>Present simple</i> dan foydalaniladi	Hozirgi va o‘tgan zamon Majhul nisbat Evolyutsion jarayonlar haqida kelasi zamoni ifodalovchi qo‘shimchalar bajaradi

XULOSALAR

1. Matn faqat gaplarning yig'indisi emas, balki mazmunan va strukturaviy jihatdan bir butunlikka ega murakkab tuzilma bo'lib, uning og'zaki shakli ham matn sifatida qabul qilinsa ham, yozma shakli ko'proq matn tahlili doirasida o'rganilgan. Muallif tomonidan ilmiy aniqlangan faktlarning bayon etilishi bilan bir qatorda sodda, hamma uchun tushunarli bo'lgan iboralarning qo'llanilishi bilan agromatnlar boshqa ilmiy matnlardan farqlanadi. Ilmiy matnlarda deyktik ko'rsatish usullari matnning mantiqiy va uslubiy yaxlitligini ta'minlashda ajralmas omil bo'lib, ular agromatnning tarkibini aniq va izchil yetkazishda ajralmas rol o'ynaydi hamda bunda zamon va makonni aniq belgilash matnning kontekstual tafsilotlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Agromatnlar tarkibida deyksis matnning ma'no uyg'unligini saqlash va o'quvchini asosiy mavzudan chalg'itmaslikda muhim rol bajaradi. Bunday deyktik elementlar bir jumladan butun matngacha bo'lgan doirada ishlatilib, o'quvchi diqqatini matnning mantiqiy oqimida tutib turadi. Shu sababli deyksis hodisasi ilmiy matnlarda ham referent izchillikni ta'minlash, ham mavzuni to'liq yoritish imkonini beradi.

3. Agromatnlarda makon va zamon ko'rsatkichlari faqat matnning ichki chegaralarida qo'llanilib, ma'lum bir matn doirasida aniqlanadi. Ingliz tilida here va there indeksikal belgilar bo'lib, agromatnlarda ko'pincha matn ichidagi makonni anglatadi. O'zbek tilida bu vaziyat bu yerda iborasi bilan ifodalanib, deyktik vosita sifatida ishlatiladi. Agromatnlarda hozir-now, here kabi so'zlar indeksikal belgilardan ko'ra ko'proq deyktik vazifalarni bajaradi.

4. Inklyuziv va eksklyuziv tarzda berish orqali birinchi shaxsning ko'plikda birgalikda yoki o'quvchidan alohida ekanligi belgilab beriladi. Uchinchi shaxsni belgilashda faqatgina ingliz tilida birlik shaklda gender xususiyati mavjud bo'lib, u uch shaklda belgilanadi. O'zbek tilidagi agromatnlarda atoqli otlar izlanishlarga murojaat qilish vositasi bo'lib, bu holat ingliz tilidagi agromatnlarda ham kuzatiladi.

5. Deyktik birliklarning pragmatik tahlili doirasida referensiallik, eksplikatura, implikatura, presuppozitsiya hamda nutq aktlari asosida amalga oshirildi. Deyktik vositalar anaforik va kataforik funksiyalar orqali matndagi referensiallikni ta'minlaydi hamda muallif fikrlarini tadqiqot qismlari va natijalarga bog'laydi. Eksplikatura agromatnlarning mazmunini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi vosita bo'lib, muallif izlanishlarini ochiq bayon qilishiga yordam beradi. Presuppozitsiya ko'proq zamon va makon munosabatlarini ifodalashda ishlatilsa, nutqiy aktlar deyktik vositalar bilan izlanish natijalarini asoslash va istiqbolni belgilashda asqotadi. Deyktik vositalar assertiv, deklarativ, komissiv va direktivlar bilan integratsiyalanib, agromatnlarda muallif va o'quvchilar o'rtasidagi kommunikativ maqsadini yuzaga chiqaradi.

6. Agromatnlardagi deyktik va anaforik ko'rsatish yordamida muallif matndagi muloqotning bir tekis davom etishini ta'minlab, ikkala holat ham deyarli bir xil muvozanatda qo'llaniladi. Agromatnlarda murakkab gaplar deyktik ko'rsatishni amalga oshirish uchun samarali ko'makchi hisoblanadi va shu tariqa

deyktik ko'rsatish lingvistik vositalar orqali matn qismlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.

7. Ko'rsatish maydoni markazidagi shaxs va makonni atoqli otlar va olmoshlar belgilab beradi, uni markazda qoldirishni ergash gapli qo'shma gaplar bajaradi. Zamoni belgilashdagi asosiy vositalar ravishlar va ular bilan birgalikda qo'llangan payt ergash gaplar hisoblanadi.

8. Kognitiv lingvistika doirasidagi grounding nazariyasi deyktik birliklar gap tarkibida obyektlarning aniqligini belgilashdagi funkcionalligini tahlil etadi. Ushbu nazariya doirasida nominal grounding misolida ingliz tilidagi artikllar diqqatga sazovor o'rinni egallaydi: aniq artikllar (definite articles) agromatnlar tarkibida muallif tomonidan tanlangan obyektни aniqlashtirish vazifasini bajaradi, holbuki, noaniq artikl miqdorni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi.

9. O'zbek tilida "tegishlilik" masalasi egalik qo'shimchalari va shaxs-son kategoriyalari orqali ifodalanib, shu tarzda nominal grounding hosil qiladi, bu esa ingliz tili bilan butkul farqlanadi. Kvantitativ groundingni belgilashda ingliz tilida miqdor olmoshlari va otlarning ko'plik shakli talab etilsa, o'zbek tilida bu qarash faqat miqdorni ifodalovchi elementlar yordamida aks etadi. Gap darajasidagi groundingni aniqlovchi vositalarga modal fe'llar va zamon shakllari kiradi. Ingliz tilidagi modal fe'llar aniqlik va masofaning ifodalanishiga imkon berib, muallif fikrining ishonchliligini hamda boshqa tadqiqotchilarning nuqtai nazariga nisbatan taxmin va gumonlarni anglatishi mumkin. Biroq, ba'zan muallif o'z fikrini ifodalayotganda modallikdan voz kechishi orqali subyektiv yondashuv kiritilmaganligini namoyish etadi. O'zbek tilida modallik maxsus so'zlar orqali ifodalangan holda gap agromatnlarida groundingni shakllantirishda o'z o'rniga ega.

10. Zamon shakllari matn tarkibida o'quvchiga ma'lum bir vaqt oralig'ini anglatib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida hozirgi zamonning turli shakllari muallifning maqsadini yanada aniqlik tushunishga yordam bersa, o'zbek tilida asosan o'tgan zamon bu vazifani bajaradi. Bu tahlil deyktik birliklarning matn jarayonidagi o'rnini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qilib, ularning til tarkibidagi semantik va pragmatik rolini yoritishda muhim nazariy asoslarni taqdim etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

БОЗОРОВА МУНИСА МАМАДИЁР КИЗИ

**ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ
ОСОБЕННОСТИ ДЕЙКСИСА В НАУЧНЫХ ТЕКСТАХ ПО
СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег. № B2024.3.PhD/Fil5047.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шерматов Акрам Абдухакимович
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Киселёв Дмитрий Анатольевич
доктор филологических наук (DSc), профессор

Очилова Нилуфар Намозовна
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 25 октября 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 62189). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан « 10 » октября 2025 года.
Протокол реестра рассылки за № 42 от « 10 » октября 2025 года.



Н.З. Насруллаева

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ [аннотация диссертации доктора философии (PhD)]

Актуальность и востребованность темы диссертации. В развитии мировой лингвистики растет интерес к возможностям прагматического, когнитивного, лингвокультурологического и психолингвистического анализа, связанным с использованием языковых единиц в текстах, относящихся к определенной области. На этой основе важное значение приобретает выявление прагмалингвистических и когнитивных аспектов текстов, относящихся к одной и той же области, наряду с их сравнительно-типологическими аспектами. В частности, феномен дейксиса, являющийся одним из основных понятий в прагматике, несмотря на то, что он находится в центре внимания лингвистов, о нем не было сделаны окончательные выводы, его связь с коммуникативными процессами, система дейктических знаков, усиливающая логическую связь и последовательность по тексту, повышающая эффективность передачи информации, а также дальнейшее уточнение контекста текста с помощью времени, пространства и других видов дейксиса, что необходимо для научного и художественного анализа, является одной из актуальных задач современной лингвистики.

В мировой лингвистике языковые единицы изучены с точки зрения речевой ситуации, знаний говорящего и слушающего о внешнем мире, и проводятся научные исследования о том, что задача передачи информации в этом процессе является феноменом дейксиса, который является одной из единиц прагмалингвистики. Классификация дейктических единиц в агротекстах английского и узбекского языков и их прагмалингвистический анализ, методы определения дейктического центра на основе когнитивного анализа, сопоставление дейктических единиц, осуществление прагматического анализа через текст, важные аспекты определения эмоциональных и информативных элементов в тексте и лингвистические и эмоциональные средства воздействия на адресата в английском языке, прагматические функции агротекстов, такие как дидактические, информативные, аргументативные и расширение знаний читателя, процессирование дейктических знаков в агротекстах и случаи дейктического отношения в выражении точности, лингвокогнитивные особенности дейксиса в агротекстах, а также сравнение двух языков становятся одной из необходимых задач в лингвистике.

В последние годы в нашей стране создается прочная основа для развития научных отраслей в соответствии с мировыми стандартами и достижениями больших научных результатов. Как отметил наш Президент, «Уже сейчас ясно проявляется, что работа, проделанная нами в этой сфере, служит поднятию нашего общества на новый уровень, достижению высоких целей и построению фундамента Третьего Ренессанса. Воспитание духовно зрелого, гармонично развитого поколения - одна из важнейших задач наших реформ, конечной целью которых является обеспечение интересов человека»¹⁹ В результате за

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б. 304.

счет использования дейктических средств в сельскохозяйственных текстах укрепляется логическая связь между частями текста, четко выражается вывод, сделанный перед читателем, анафорические средства в агротекстах позволяют упростить и переформулировать сложные понятия, широко используются дейктические единицы во вводной и заключительной частях агротекста, обеспечивается общая структурная целостность текста и правильное восприятие значений читателем. Такие взгляды, как классификация дейктических единиц, указывающих на необходимую информацию автора в процессе когнитивно-познавательной деятельности, характерной для агротекстов, определяют актуальность темы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан: УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» а также в Постановлениях Президента Республики Узбекистан: ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено согласно приоритетному направлению развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике в настоящее время проводятся исследования в области теории дейксиса, в частности, по изучению проблем дейксиса в прагматике. К числу зарубежных ученых, проводивших научные исследования по прагматическому и когнитивному анализу дейксиса, можно отнести следующих: Ф.Л. Буш, Э. Тодиско, Н. Пильгуй, С.К. Левинсон, Дж. Лайонз, Ф. Корниш, Ф. Бризард, Хуан Янг, У.Ф. Хенкс, П.С. Лаурея и др.²⁰

²⁰ Buch F.L. Speech Act Deixis: Doctoral thesis. – Humboldt University of Berlin, 2023. <http://edoc.hu-berlin.de/18452/29348>; Todisco E. Deixis across languages, samples and methodologies: Doctoral thesis. – Universitat de les Illes Balears, 2022. – 105 p.; Пильгуй Н.М. Англомовний науковий агротехнічний дискурс: лінгвостилістичний та прагматичний аспекти: Автореф. дисс. ... канд. філол. наук. Запоріжжя, 2014. – 22 с; Levinson S.C. Deixis. In The handbook of pragmatics, edited by Lawrence R. Horn and Gregory Ward – Oxford: Blackwell, 2004. – P. 97-12.; Lyons J. Semantics, vol. 1 and 2. - Cambridge: Cambridge University Press, 1977. –

Проявление текста и дейктических единиц в нем наблюдается в работах ряда русских лингвистов: Н.Сребрянской, О.Л. Муковского, С.Н.Курбаковой, И.В. Коровиной, Е.Ерзинкян, В.В.Журы, В.И. Шматовой.²¹

